

YANGI 5-SINF ONA TILI DARSLIGI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Pulatova Gulhayo 301-guruh talabasi,

Ilmiy rahbar: Usmonov Aslam

5-sinf o'quvchilari uchun yangi ona tili darsligining 2020-yili chiqqan yangi nashri bn tanishib chiqdik va bu darslikka ko'plab yangiliklar kiritilganligining guvohi bo'ldik va darslik haqida quydagi xulosalarni berdik.

Birinchidan Tilning ijtimoiy ahamiyati deb nomlangan mavzudagi til haqida berilgan gaplar endi katta sinfga qadam quyayotgan bolalar ongida tilning mohiyatini anglash va ko'proq til o'rganishiga turtki bo'ladi.

5-betda berilgan 6-mashqdagi Naito Rioning uzi haqida aytgan ma'lumotining berilishi yosh avlod qalbida o'zbekligidan o'zbek tilida gaplashishidan faxrlanish hissi chulg'aydi.

Ikkinchidan darslikka bola uchun hali notanish bulgan so'zlarning ma'nosini o'rgatadigan izohlarning kiritilgani judayam maqsadga muvofiq bo'lgan.

Misol uchun ijtimoiy,nufuz,ma'rifat,mezon,tamal toshi kabi so'zlar shular jumlasidandir.

7- betdagi Mustaqil so'z turkumlarini takrorlash,Ot so'z turkumi mavzusida berilgan 11- mashq o'quvchi tasavvurini kengaytirishga unda ijodkorlik qobiliyatini yuzaga keltirib shakllantirishga xizmat qiladi va so'z turkumlarini to'g'ri qo'llashni o'rgatadi.Bu mashq mavzuga mos tarzda berilgan.

Sifat so'z turkumini takrorlash mavzusida berilgan 1-topshiriq o'quvchilarni buyuk shaxslaring suratlar bn tanishtiradi suratlarning berilishi yaxshi yangilik bo'lgan chunki o'quvchi bu shaxslarni ismini eshitgan lekin qaysi bir bu shaxs ekanligini bilmagan bulishi mumkin bu surat esa ular shaxsi bn ham tanishish imkonini bergan.

Fonetika bo'limi.

Fonetika bo'limidagi 15-betda berilgan 29-mashq fonetika mavzusiga mos tarzda nuqtalar o'rniga mos harflarni quyib hikmatli so'zni ko'chiring deyilgan.

15-betdagi 30-mashq paronimlarga oid ekan bu ham to'g'ri lekin 5-sinf o'quvchisi hali paronimlarni ma'nolarini tushunmasligi uni farqlay olmasligi mumkin. Masalan: mard_mart so'zlarni ajrata olishi mumkin lekin kaft_kift, tasir_ta'sir, yondosh_yondash kabi so'zlar ma'nolarini bir biridan ajratish ularga qiyinchilik to'g'dirishi mumkin.

14- betdagi 1-topshiriqdagi to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qiling degan jumlaning o'quvchi tushunmasligi mumkin buni o'rniga matnning so'zlab berilgan deyilganda maqsadga muvofiq bo'lardi.

8-dars Matn va lug'at ustida ishlash ekan bunda berilgan "Odamiylik" matni o'quvchini mana shu berilgan sifatlarni o'zida shakllantirishiga turtki buladi. Lekin Komil inson degan so'zni 5 -sinf bolasi hali tushunmaydi. Buni o'rniga "yaxshi insondir" degan jumlaning quyidagidek bo'lar edi.

38-mashqda nuqtalar o'rniga mos harfni qo'ying deyilgan va saxovat,sabzavot kabi so'zlar berilgan bunda a va o, x va h harflarini to'g'ri qo'llay olishga yordam beradi . 22-ettadagi 45-mashqda internet tarmoqlari haqidagi matn berilgan. Uning pastidagi 46-mashqda esa quyidagi savollar berilgan:1 Sizni internetdagi qanday ma'lumotlar qiziqtiradi? 2 Ertalabdan kechgacha kompyuter yonida o'tirib,jangari filmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi? Buning nimasi sizga yoqadi? kabi savollar bn murajaat qilingan. Bu qaysidir ma'noda odobni odobsizdan o'rgan qabilida berilgan bo'lishi mumkin lekin hali uncha foyda bn zararining farqiga bormaydigan bolada shu o'yinlarga qiziqish ham uyg'otishi mumkin.

53-betdagi 31-dars Matn va lug'at ustida ishlash ekan bunda Telefonda gaplashish madaniyati nomli matn berilgan ekan bu matn orqali darsliklarimiz ham zamonaviylikka qarab o'zgarayotganini ko'rsatadi.

84-dars Joy nomlari tarixi degan mavzu ekan bunda Farg'ona viloyatining nega bunday atalgani haqida ma'lumot berilgan bu birinchidan o'quvchilarni Farg'onaning nomlanish tarixi bilan tanishtiradi. Ikkinchidan o'z viloyat,tuman,qishlog'ining ham nega bunday nomlanganiga qiziqadi va bobo buvilaridan so'rab bilib oladi bu matn juday maqsadli berilgan.

88-dars Ismlar ma'nosi va imlosi degan mavzuda ekan bundagi "Taxalluslar ma'nosini bilasizmi?" deyilgan topshiriqda Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Fitrat, Oybek kabi buyuk shaxslarning taxalluslarining ma'nosi bilan o'quvchi tanishtirilgan bu esa o'quvchilar uchun judayam foydali bo'lgan.